WORLD FORUM ON ACADEMIC INNOVATION AND DIGITAL LITERACY

YANGI O‘ZBEKISTONNI BIRGALIKDA BARPO ETAMIZ

Buxoro viloyati Vobkent tumani

1-son texnikumi tarix fani o‘qituvchisi

Yusupova Gulzoda Maxsutovna

Annotatsiya: Maqolada “Yangi O‘zbekiston”ni barpo etish jarayonida raqobatbardosh, mustahkam immunitetga ega, tashabbuskor va kreativ fikrlaydigan shaxsni shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, pedagogik faoliyatning sifati va samaradorligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o‘rni, ta’lim jarayonida muvaffaqiyatga erishish yo‘llari hamda tez va samarali rivojlanishning o‘ziga xos jihatlari haqida umumiy ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, innovatsiya, innovatsion texnologiya, ta’lim, metod, shaxs, salohiyat, kreativlik, tashabbuskor, kasbiy faoliyat, kompetentlik, faollik, mahorat.

Insoniyat taraqqiyoti asrlar davomida shakllanib, har bir davr o‘zining yuksalish bosqichlari bilan tarix sahifalariga muhrlangan. Har bir xalq va millat hayotida sodir bo‘ladigan ma’naviy uyg‘onish, intellektual yuksalish va ijtimoiy o‘zgarishlar milliy o‘zlikni anglashga xizmat qiladi. Aynan ana shu jarayonlar natijasida jamiyat yangi bosqichga ko‘tariladi. Bunday tarixiy hodisani biz uyg‘onish, qayta tiklanish va yuksalish, ya’ni Renessans deb ataymiz.

Bugungi kunda Uzbekistan hududida yana bir ulkan tarixiy jarayon - “Yangi O‘zbekiston”ni barpo etish jarayoni kechmoqda. Bu jarayon “Uchinchi Renessans” g‘oyasi bilan uyg‘unlashib, mamlakat taraqqiyotining yangi ufqlarini ochmoqda. Mazkur ikki tushuncha bir-birini to‘ldirgan holda xalqni, ayniqsa yosh avlodni buyuk maqsadlar sari yetaklamoqda.

“Yangi O‘zbekiston” tushunchasi - bu faqat iqtisodiy islohotlar emas, balki yangicha tafakkur, zamonaviy qarashlar va innovatsion iqtisodiy dunyoqarash tizimidir.

Bu yo‘l milliy tarixni chuqur anglash, boy madaniy merosni qadrlash hamda mustaqil taraqqiyot yo‘lini yanada yuqori bosqichda davom ettirishni anglatadi.

Mustaqillikdan so‘ng mamlakatda ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy sohalarda keng ko‘lamli o‘zgarishlar yuz berdi. Jamiyatda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Kelajak avlodni yuksak ma’naviyatli, bilimli va salohiyatli qilib voyaga yetkazish jamiyat oldidagi eng muhim vazifalardan biri sifatida belgilandi.

“Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi barcha sohalarda chuqur islohotlar jarayonini jadallashtirdi. Ayniqsa, ta’lim tizimi modernizatsiya qilinib, yosh avlodni zamonaviy bilimlarga ega, raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda ularda vatanparvarlik, g‘urur, mustaqil fikr va mas’uliyat hissini mustahkamlash asosiy vazifalardan biridir.

Maqsadning aniq belgilanishi - har qanday taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Bugungi yoshlar nafaqat bilim oluvchi, balki ijodkor, tashabbuskor va innovatsion g‘oyalar yaratuvchi kuch sifatida shakllanmoqda. Ularning kreativ fikrlashi, muammolarga noodatiy yondashuvi va zamonaviy texnologiyalarni egallashi jamiyat rivojining muhim omiliga aylanmoqda.

“Shaxs” tushunchasi jamiyatda yashab, ijtimoiy tajriba va bilimlarni o‘zlashtirgan, atrof-muhitga ongli munosabat bildiruvchi insonni ifodalaydi. Bugungi kunda barkamol shaxsni shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Buning uchun shaxs psixologiyasi, uning ichki tuzilishi va rivojlanish qonuniyatlarini chuqur o‘rganish zarur.

Ayniqsa, ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Chunki aynan ta’lim jarayonida o‘quvchi va talabalar qiziqishi ortadi, ularning bilish faoliyati faollashadi va shaxsiy rivojlanish jarayoni kuchayadi. O‘qish jarayonida nafaqat bilim, balki xarakter, dunyoqarash va axloqiy sifatlar ham shakllanadi.

Ta’lim samaradorligi ko‘p jihatdan pedagogning mahorati va zamonaviy texnologiyalarni to‘g‘ri tanlashiga bog‘liqdir. Interaktiv metodlar, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik vositalar ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar - bu ta’lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan yangiliklar majmuasi bo‘lib, ularni ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish va samaradorligini baholashni o‘z ichiga oladi.

Ushbu texnologiyalar quyidagi natijalarga xizmat qiladi:

- ta’lim sifatini oshirish;
- ta’lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish;
- o‘quvchilarning faolligini kuchaytirish;
- mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish;
- tashabbuskorlik va ijodkorlikni shakllantirish.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini tezlashtiruvchi, samaradorligini oshiruvchi va uni tizimli boshqarishga imkon beruvchi muhim omildir. Bugungi kunda ta’limni texnologiyalarsiz tasavvur qilish mushkul, chunki ular bilim berish jarayonini yanada qulay, samarali va zamonaviy shaklga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘.J. To‘ldoshev. Umumiy pedagogika. – T.: “Fan va texnologiya”, 2017 y. -376 bet.
2. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017 yil. -416 bet.
3. A.A. Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: Iqtisod-moliya, 2011 y. -420 bet.
4. Raxmonova Sojida Muxammadovna. “Preparing the graduate students of primary

education for innovative professional activity". Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 8, August, 2023. Pages 288-293

5. Raxmonova Sojida Muxammadovna. "Practical features of preparing primary education students for professional activity" science and innovation in the education system, 2(9), 67–71. https://doi.org/10.5281/zenodo.8314153. 31.08.2023 y
6. Рахмонова Сожида Мухаммадовна. "Педагогико-психологические особенности подготовки учителей начальных классов к инновационной профессиональной деятельности. Innovative research in the modern world: theory and practice, 2(23), 92–94c. 11(39)-son 31.08.2023 y
7. S.M.Raxmonova Didactic possibilities of improving the methodology for preparing future educators of the preschool educational organization for innovative professional activities. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT ISSN: 2792 – 1883 | Volume 2 No. 12 https://literature.academicjournal.io 16.12.2022 y.36-40 bet.
8. S.M. Raxmonova Мактабгача таълим ёшидаги болаларга таълим беришда компетенциявий ёндашув. Respublika OAK. Илимий-методикалық журнал 5/1 2022 y.101-105 bet
9. S.M. Raxmonova Bo'lajak pedagoglarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'z-o'zini shakllantirish va mukammallashtirishga o'rgatish. Respublika OAK. Илимий-методикалық журнал. ¾. 2023 y. 141-146